

Normatova Navro‘zaoy Odilboy qizi*Farg‘ona Davlat universiteti**Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ishi yo‘nalishi**5-bosqich talabasi 20-139-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir bo‘lajak zamonaviy pedagoglar uchun juda ham kerakli hisoblangan pedagogik mahorat haqida tushunchalar, pedagogik mahoratning ahamiyati va uning jamiyatda tutgan o‘rni, o‘qituvchilarini pedagogik mahorat va uni egallash yo‘llari, shaxsiy mahoratini shakllantirish yo‘llari, pedagogik nazokat, pedagogik madaniyat qobiliyatini egallash haqida ma'lumotlar va o‘qituvchi pedagog mahoratini oshirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *pedagog, pedagogik mahorat, pedagogik nazokat, metod, pedagogiq madaniyat, qobiliyat.*


Tobora rivojlanib borayotgan davrimizda pedagoglarga qo‘yiladigan talablar ham ortib bormoqda. Har bir zamonaviy pedagoglar uchun pedagogik mahorat juda ham zarurdir. Bola mакtabga borgan davrlarda maktab hayotiha moslashish jarayoniga duch keladi. Ba’zi hollarda bolalarda ijtimoiy moslashivi shakllanish biroz qiyinligi va bilish jarayonini yetarli emasligi bir qancha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi va hatto jismonan yetuk va bilimli bolajonlar ham maktab hayotiga moslashishi biroz qiyin bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisdagи Muroojaatnomasida “Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasи bilan chambarchas bog‘liq. Yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularni ilm-fanga intilishlarini ro‘yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishimiz, o‘rtा va oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o‘quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak”. “Muroojaatnomada” “Oliy ta’lim masalalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish-eng muhim masalalardan biri” ekanligini ko‘rsatib bergen. Har bir maktab yoshiga yetgan bolalar maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, hali unda o‘yinqaroqlik tark etmagan bo‘ladi. Bu albatta, pedagoglardan ko‘proq mehnat, sabr -matonat, iroda va albatta, pedagogik mahorat, nazokat talab etiladi. Shu bilan bir qatorda 1-sinfga qabul qilingan o‘quvchilar bilan ishlayotgan sinf rahbarlari va maktab psixolohlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Har qanday pedagogik mahoratga ega o‘qituvchi o‘quvchilarini maktab hayotiga moslashishi va darslarni oson o‘zlashtirishiga erisha oladi. Pedagogik mahorat har bir pedagoglar uchun juda ham zarurdir.O‘qituvchilarning kasbiga oid mahoratini shakllantirishda pedagogik-psixologik nazariylarning ahamiyati katta hisoblanadi.Chunki, ma’naviyatimizning shakllanishida o‘qituvchilar faoliyati to‘g‘risida ularga qo‘yilayotgan talablar haqida zamonaviy pedagogik texnologiyalar to‘g‘risida nazariyalar kasbiy mahoratini shakllantirishning asosiy manbasi hisoblanadi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Pedagogik mahurat deganda pedagogik faoliyat yuritishda o‘qituvchilarning qobiliyatlarini oliy darajada namoyon etishi, butun borliqni va diqqat e’tiborini ta’lim-tarbiyaga yo‘naltirish va o‘quvchilarni darsga jalb qila olish tushuniladi.

Pedagogik mahurat uzoq vaqt davomida o‘qish-o‘rganish, mashq qilish, tajribalar asosida hosil qilinadi.

Pedagogik mahoratning quyidagi tarkibiy qismlar tashkil etadi:



Pedagogik mahoratning asosiy poydevori kasbiy bilimlarni egallashdir. O‘qituvchining bilimlari, bir tarafdan, darslarda qo‘llayotgan predmetlarga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tarafdan esa, darslarni o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga qaratilgan. Pedagokning mahorati-bilimlarni “insoniylashtirish”dadir, ularni sinfga oddiy kitoblar bilan emas, balki, o‘zining dunyo qarashi sifatida bayon etadi. Pedagogik mahorat har bir fan o‘qituvchilari uchun juda ham zarur hisoblanadi. Chunki, pedagokning kasbiy bilimlari asosida pedagogik ong shakillanadi va albatta, pedagogic mahoratga ega o‘qituvchi nutqining ravon bo‘lishi vao‘tilayotgan mavzuga o‘quvchi diqqatini torta oladigan, mavzuni turli xil ko‘rgazmalar bilan o‘tish, va har qanday sharoitda ham o‘quvchi qalbiga yo‘l topa oladigan va darslarga o‘quvchining qiziqishlarini oshira oladigan shaxs tushiniladi. Muvaffqiyatli ishlash uchun har bir zamonaviy pedagok pedagogik mahoratga ega bo‘lishi kerak. Pedagogik mahoratga ega o‘qituvchi oz mehnat sarf qilib katta natijalarga erishadi, o‘z kasbdoshlari orasida ham ajralib turadi. Ijodkorlik hamisha uning hamkor bo‘ladi.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi.

Pedagogik mahorat — bu o‘qituvchining yoki tarbiyachining o‘quvchilarni ta’lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirishdagi kasbiy ko‘nikmalari, bilimlari va mahoratidir. Pedagogik mahorat o‘qituvchining o‘quv jarayonida samarali va muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo‘lgan barcha qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu faqat bilim berish emas, balki o‘quvchilarni tushunish, ularga individual yondashish,

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS


motivatsiya berish va ularning o‘rganish jarayonini boshqarish kabi ko‘nikmalarini ham anglatadi.

Pedagogik mahoratga quyidagi jihatlar kiradi:

1. **Pedagogik bilimlar:** O‘qituvchi o‘z fani bo‘yicha chuqur bilimlarga ega bo‘lishi, shuningdek, ta’lim metodikasini va pedagogik texnologiyalarni yaxshi bilishi.
2. **Komunikatsiya qobiliyatları:** O‘qituvchining o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ular bilan aniq va tushunarli muloqot o‘rnatish qobiliyati.
3. **O‘qitish metodikasi:** Turli o‘qitish metodlarini, texnik va usullarni (masalan, guruh ishlari, mustaqil ish, muammoli o‘qitish) muvaffaqiyatli qo‘llash.
4. **Emotsional intellekt:** O‘qituvchi o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini, ehtiyojlarini tushunib, ularga tegishli qo‘llab-quvvatlashni ko‘rsatish.
5. **Boshqaruv qobiliyatları:** Sinfdagagi tartibni saqlash, o‘quvchilarni motivatsiya qilish va ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli boshqarish.
6. **Ijodkorlik:** O‘qituvchining yangi va qiziqarli ta’lim usullarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish.

Pedagogik mahorat, shuningdek, o‘qituvchining o‘zini doimiy ravishda takomillashtirishi va yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishi zarur. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va emosional rivojlanishiga yordam beruvchi shaxs sifatida ham faoliyat yuritadi.

Pedagogik mahoratning asosiy jihatlari quyidagilarga bo‘linadi:



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Pedagogik mahoratga ega o'qituvchi — bu faqatgina bilim berish bilan cheklanmay, o'quvchilarga ta'lif jarayonini samarali, motivatsiyali va qiziqarli tarzda o'tishga yordam beradigan, shuningdek, ularning shaxsiy va intellektual rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadigan mutaxassisdir. Pedagogik mahoratga ega o'qituvchi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga, ko'nikmalarga va qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, o'qituvchi o'z bilimlarini o'quvchilarga tushunarli va aniq tarzda yetkazish, o'quvchilar bilan ochiq va ijobjiy muloqot o'rnatish, ular bilan samarali dialog o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Pedagogik mahoratga ega o'qituvchi o'quvchilarni tinglashni, ularga savollar berishni, fikr almashishni va har bir o'quvchining ehtiyojiga mos tarzda yondashishni biladi. Pedagogik mahoratning biz yuqorida ko'rib chiqqan tarkibiy qismlari, uni tuzilmaviy harakterga ega ekanligini anglatadi. Pedagogik mahoratning asosiy negizi bu - kasbga oid bilimlarni puxta o'zlashtirishdan iboratdir. O'qituvchi o'quv yurtidayoq ilmiy bilimlar tizimini puxta egallab olishi kerak. Pedagogik mahoratni egallahda psixologiya va pedagogika faniga doir bilimlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy psixologik va pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchiga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'quvchilarni o'rganish va ularning to'g'ri fe'l-atvorlarini tushunishgagina emas, balki bolalar jamoasi va uning har bir a'zosini rivojlanish istiqbolini ham belgilash imkonini beradi.⁴⁰ Pedagogik mahoratning yaqqol tashqi belgilari: faoliyatni aniq maqsadga yo'naltirilganligi, vazminlik, mulohaza yuritish, o'quvchilar bilimini puxtaligi, eng maqbul vositalarni tanlanganligi, o'z faoliyatiga ijodiy yondashuvidir.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat shirlarini egallah uchun avvalo ta'lif va tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Bu bilan o'quvchilarda muayyan bilim, ko'nikma, malakalar va xulqni shakllantiradi.

Xulosa

Xulosa sifatida, pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlarini ko'rib chiqish mumkin. Birinchi o'rinda, bu — ta'lif jarayonini puxta rejorashtirish va unga mos ravishda metod va texnologiyalarni tanlashdir. O'qituvchi o'z darslarini qiziqarli va samarali o'tkazish uchun innovatsion yondashuvlarni qo'llashda davom etishi kerak. Ikkinci, talaba bilan samarali aloqalar o'rnatish va uning ehtiyojlariga mos ravishda ta'lifni individualizatsiya qilish muhimdir. Uchinchidan, o'qituvchi o'z bilimlarini muntazam ravishda yangilab borishi va o'z mahoratini oshirishi lozim. Bu uchun pedagogik kasbga bag'ishlangan o'quv kurslari, seminarlar va treninglar yordamida malaka oshirish jarayonlari muhim o'rinn tutadi. Shuningdek, o'qituvchi o'zining etika, axloq va pedagogik qadriyatlariga sodiq bo'lishi, talabalarga o'rnak bo'lishi zarur.

Shunday qilib, pedagogik mahorat nafaqat bilimlarni yetkazishda, balki talaba bilan munosabatlarni o'rnatishda, ta'lif jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda katta rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini rivojlantirishda, doimo yangi

⁴⁰ O'tkir Yo'ldashev, Adxam Abdurashidov "Umumiyy pedagogika" 376-bet

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

metodlar va yondashuvlarni izlab, ularga moslashishi lozim. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchining professional o‘sishi va ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1] O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Oliy majlisga murojatnomasi. 28.12.2018yil
- 2] O’tkir Yo‘ldashev, Adxam Abdurashidov “Umumiyl pedagogika”. Farg‘ona “Farg‘ona” nashriyoti, 2021. -640b.
- 3] A.Xoliqov “Pedagogik mahurat” – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti-420b.
- 4] <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/pedagogika-fanining-maqsad-va-vazifalari>

